

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 656 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'larning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lum sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari	54
Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari	68
Uralov Olimjon Muhammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xuriniso Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunallyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятыова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruvin tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdji qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленность развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамирова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шермаматова Иорда Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг Розоков Мухаммадазиз Мансурович	248
Factoring Operations in Banks..... Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	253
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish..... Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	257
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati .. Oybek Elmuratov	264
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish..... Uzakova Umida Ruzievna	268
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy .. Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	274
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari .. Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	278
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari .. Norqobilov Nusrat Norsaitovich	284
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi .. Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilara Yusubayevna	288
Mahalliy budgetlar mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi .. S. Y. Ismoilova	295
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil .. Qurbanova Firuza Solexovna	300
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetlari ijrosi hisobini yuritish tartibi .. AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	306
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari .. Olimova Nodira Xamrakulovna	312
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish..... Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	324
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzlusizligini baholash..... Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li	331
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий..... Махкамова Надира Сайдмуратовна	335
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili .. Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	340
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish..... Xudoyorov Laziz Niyoziyovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	345
Mamlakatimzda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	351
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi .. Amonova Dilafro'z O'tkurovna	357
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish .. Axmedov Miraziz Alisherovich	362
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari .. Hamrokulov M. O.	367



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choraları.....	402
Oybek Toshtemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ihsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charoxxon Polvonqli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Bababjanov Abdirashid Musayevich	
Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari	448
Masharipov Maxim Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamlı marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Rauiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях:	
сравнительный анализ	482
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Райно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Ходарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Исандарович	
Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution	528
Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich	
Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy.....	534
Farhad Karimov	
Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash.....	538
Kabulova Nurgo'zal Umirbek qizi	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish.....	541
Muminova Maxbuba Abduvafoyevna	
Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash.....	548
Musurmonova Mahbuba Omonovna	
Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlari..	552
To'rayerov Nurbek Muxammadovich	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	557
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari.....	562
Sharipova Shoxida Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari.....	567
Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
Institutsiyonal investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlari	574
Sultanov Maximud Axmedovich	
Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari.....	578
Turanov M. Sh.	
O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni.....	586
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna	
O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi.....	596
Urazov Mansur Musurmanovich	
Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun	
Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash.....	599
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
Rangli tasvirlarga raqamlı ishlov berish jarayonlarini parallellashtirish.....	605
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri	610
Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в	
маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ	615
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....	623
Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.	
Positioning Textile Products in Competitive Strategy.....	626
Икрамова Нодира Бурхон қизи	

MUNDARIJA CODERZHANIYE CONTENTS



Sanoatni tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash.....	631
Kasimov Azamat Abdurkarimovich	
O'zbekiston Respublikasi budgetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	638
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari.....	645
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
Vliyanie plodordnosti pochvy na urozhajnost' chlopchatnika v chlopkovo-tekstilylnykh klasteraх	
Respubliki Karakalpakistan	650
Sagieva Moldir Orazbaj kizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI



Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktarantı

Ilmiy rahbar: Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida „yashil“ iqtisodiyotni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. „Yashil“ iqtisodiyot, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash maqsadida joriy etiladigan iqtisodiy strategiya va amaliyotlar majmui sifatida qaraladi. Ushbu maqolada, O'zbekistonda „yashil“ iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb vazifalari, shuningdek, bu yo'nalishdagi asosiy muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil investitsiya, yashil energetika, qayta tiklanadigan energiya, yashil o'sish, yashil taraqqiyot, yashil tiklanish.

Abstract: This study is devoted to the analysis of the economic mechanisms of development and support of the "green" economy in the Republic of Uzbekistan. "Green" economy is considered as a set of economic strategies and practices introduced in order to combat climate change, protect the environment and ensure sustainable use of natural resources. This article presents the current tasks of the development of the "green" economy in Uzbekistan, as well as the main problems in this direction and proposals for their solution.

Key words: green economy, sustainable development, green investment, green energy, renewable energy, green growth, green development, green recovery.

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу экономических механизмов развития и поддержки "зеленой" экономики в Республике Узбекистан. "Зеленая" экономика рассматривается как совокупность экономических стратегий и практик, внедряемых в целях борьбы с изменением климата, защиты окружающей среды и обеспечения устойчивого использования природных ресурсов. В данной статье представлены текущие задачи развития "зеленой" экономики в Узбекистане, а также основные проблемы в этом направлении и предложения по их решению.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, зеленые инвестиции, зеленая энергетика, возобновляемые источники энергии, зеленый рост, зеленое развитие, зеленое восстановление.

KIRISH

So'nngi yillar ichida "yashil" iqtisodiyot g'oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonida bu masalaga ko'p bora to'xtalib kelinayotganligi "yashillashtirish" siyosatiga bo'layotgan jiddiy e'tibor bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda zamонавиylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko'rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarni olishda tabiatga "mur-ojaat qilish" ham ko'payib bormoqda. "Yashil" iqtisodiyot mana shunday o'zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta'sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta'siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o'zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlanasa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mahsulotni iste'mol qilish bilan munosabatlar "yashillashtirish" sa'y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobjiy tarafga o'zgaradi. Ya'ni "yashil" iqtisodiyot aholi farovonligini ta'minlashdagi va iqtisodiy o'sishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.



“Yashil” iqtisodiyot ni rivojlantirishda energetika tarmog’ida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi, tabiiy resurslardan oqilonqa foydalanilmayotganligi, texnologiyalar yangilanishning sustligi, “Yashil” iqtisodiyot ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga halaqit qilmoqda. Bu sohada uzoq muddatli strategiyaning mayjud emasligi “yashil” texnologiyalarni joriy etish va “yashil” iqtisodiyotga o’tish bo'yicha tizimli choralar ko'rishni ta'minlashga yo'l qo'ymayabdi.

Mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qaror bu islohotlarni jadall amallga oshirishda muhim tarixiy ahamiyatga ega hujjatdir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 9-aprelda “O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”² qarorida Respublika hududida vodorod energetikasi infratuzilmasini yaratish, qayta tiklanuvch va vodorod energetikasi sohalarida ilmiy va amaliy izlanishlarning natijalarini ko'paytirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shu jumladan, “yashil” iqtisodiyot ga o’tishni taminlash vazifalari belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “Yashil” iqtisodiyot tushunchasi shakillana boshlagan. Ilk bor “yashil” iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan “yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi”, deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotdaqo'llanilgan³.

Yashil iqtisodiyot – bu insoniyat va tabiat o'tasidagi uyg'un o'zaro tasirni qo'llab quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni bir hil qondirishga harakat qiladigan, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotning metodalogiyasidir.

Aytish joizki, “Yashil” iqtisodiyot tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo'llanilganligiga qaramasdan iqtisodiy adabiyotlarimizda uning aniq, yagona va umumiyl qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Shu tufayli “yashil iqtisodiyot” tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Ayrim adabiyotlarda “Yashil” iqtisodiyot tabiatiga yordam beruvchi, ko'maklashuvchi va foya keltiradigan yangi texnologiyalar va ekotizimlar sifatida o'rganiladi, boshqa tadqiqotlarda esa mamlakat tabiatini yaxshilashga yordam beruvchi iqtisodiyotning yangi tarmog'i sifatida tadqiq qilinadi. Shuningdek uchinchi guruh iqtisodiyot tadqiqotchilari, “Yashil” iqtisodiyot - bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichi deb hisoblab, uning asosini sof va “yashil” texnologiyalar tashkil etishini tavsiflashgan.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda “Yashil” iqtisodiyot – bu insonlar faravonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan⁴.

Iqtisodiy fanlar doktori, professor M. Pardayevning fikricha, “Yashil” iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir⁵.

Ya'ni “Yashil” iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof- muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Uning fikricha aholi turmush darajasini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va Atrof-muhitga zyon bermasdan ko'paytirib borish lozim. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish lozim.

METODOLOGIYA

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda Atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo'ladi⁶.

1 <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 <https://lex.uz/docs/-5362032>

3 Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp

4 Навстречу "зеленой" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бесса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендалъ, 2011. С. 17

5 [https://zarnews.uz/ ma'lumotlari](https://zarnews.uz/ma'lumotlari)

6 Yashil iqtisodiyot: Darslik. / A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. – Toshkent.: “Universitet”, 2020. –262 b.



“Yashil” iqtisodiyot konsepsiysi tarafdarlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasini yaxshilashga muayyan ijobji natijalar olib kelayotganiga qaramasdan mukammal hisoblanmaydi. Ekologiyaning buzilishi, tabiy kapital cheklanganligi va ularning tugab borayotganligi, shuningdek kambag’allik darajasining ortib borishi, oziq-ovqat, chuchuk suv, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o’rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligini isbotlovchi holatlар hisoblanadi.

UNEP tomonidan 2008-yilda “yashil” iqtisodiyot ni rivojlantirish tashabbusi ilgari surilgan bo’lib, quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- 01** Ekologiya bilan bog’liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiniga aylantirish
- 02** Aholi bandligini ta’minlash va tegishli chora tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida “yashil” ishchi o’rninlarni taratish
- 03** Barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanish

1-rasm: “Yashil” iqtisodiyot ni rivojlantirish tamoyillari⁷

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiysi quyidagi aksiomalarga tayanadi: cheklangan muhitda ta’sir doirasini cheksiz kengaytirishning mumkin emasligi, resurslar cheklanganligi sharoitida o’sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatining yoqligi va yer sharida hamma narsalarning o’zaro bog’langanligi⁸.

UNEP tadqiqotiga ko’ra jahon tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilga qadar har yili 2 trln.dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Dunyo aholisining soni bu davrga borib 28%ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darjasasi 71% ga ortishi bashorat qilinmoqda⁹.

“Yashil” iqtisodiyot ni shakillantirish “yashil o’sish”ni ta’minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga yordam beradi. “Yashil” iqtisodiyot ni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishida muhim asos qilib olish mumkin.

“Yashil iqtisodiyot”ga o’tish, aksincha, keljak avlodlarni ekologik haf hatarlarga yoki ekologik tanqislikka duchor qilmasdan, aholi farovonligi va hayot sifatini yaxshilashni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, mutaxassislardan “Yashil” reoslarga o’tishning beshta asosiy yo’nalishini belgilab olishgan (2-rasm).

- Uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida “Yashillashtirish”
- “Toza” transportni rivojlantirish
- Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish
- Yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish
- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish

2-rasm: “Yashil” reoslarga o’tishning beshta asosiy yo’nalishi¹⁰

7 Muallif ishlansasi

8 Бацалова; 2020.

9 UNEP. (2022). Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>


10 Muallif ishlansasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o'tish izchil tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev takidlaganidek, "2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir. Biz, shu yildan boshlab inflyatsiyaviy targetlash tizimini joriy qilishga o'tdik. Bu borada Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi iqtisodiy o'sish bilan inflyatsiya o'rtaida muvozanatni ta'minlashi, tashqi xavf-xatarlarni hisobga olishi zarur"¹¹.

Shuningdek, davlat fiskal siyosati ham makroiqtisodiy barqarorlikga erishishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Fiskal siyosat davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi, hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga va mamlakat aholisini turmush darajasiga faol tasir qiladi.



3-rasm: 2019–2022-yillarda YaIM таркibi. (трун, со‘м)¹²

Dastlabki malumotlarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YALM) hajmi joriy narxlarda 888.3 trillion so'mni tashkil etdi va o'sish 10,9 foiz bo'ldi. 2020–2021-yillarda bu ko'rsatkich mos ravishda 605.5 trillion so'm va 738.6 trillion so'mni tashkil qilgan edi.

1-jadval: Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ko'rsatkichlari¹³

Ko'rsatkichlar	Trln.so'm	2021-yilga nisbatan % hisobida
YalM jami	888,3	10,9
Qishloq xo'jaligi	317,8	104,0
Qurilish	107,4	106,8
Investitsiya	245,0	105,2
Sanoat ishlab chiqarish	451,6	108,7
Istemol tavarlari ishlab chiqarish	152,0	113,5
Xorijiy savdo aylanmasi	42,1	116,0
Xizmat ko'rsatish	283,3	119,2

Jahon banki 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyotini 4,3 foizga o'sishini prognoz qilgan edi. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rtacha yillik kursi bo'yicha hisoblangan YalM hajmi 57,7 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan.

<https://xs.uz/post/Shavkat-Mirziyoev-Makroiqtisodiy-barqarorlikni-ta'minlash-va-inflyatsiyani-jilovlash-iqtisodij-islohot-lar-jarayonidagi-bosh-vazifamizdir>

12 O'zbekiston Respublikasi statistika Qo'mitasi rasmiv savti va nashrлari asosida muallif tomonidan tuzildi
lar-yarayonidagi bosni vazifalimizdir

¹² O'zbekiston Respublikasi statistika Qo'mitasi rasmiy sayti va nas.
¹³ <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





Respublikamizda 2022-yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 317,8 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 % ga o'sgan.

2-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ishlab chiqarish hajmi¹⁴

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
I. YaIM-jami	532 712,	605 514,9	738 425,2	888 341,7
shu jumladan:				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	379 152,90	484 128,70	557 831,50	681 423,70
Mahsulotlarga sof soliqlar	45 575,80	45 262,70	44 361,50	53 164,00
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	379 152,90	484 128,70	557 831,50	681 423,70
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	113 660,70	130 306,90	151 279,60	183 518,50
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	117 905,00	166 698,60	190 736,40	235 408,90
Sanoat	95 803,80	136 103,10	153 188	189 606,80
qurilish	22 101	30 595,40	37 548,50	45 802,10
Xizmatlar	147 587,20	187 123,20	215 815,50	262 496,30
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26 747,90	32 501,80	37 341,30	47 577,50
tashish va saqlash, axborot va aloqa	30 616,00	36 630,4	39 125,80	48 851,30
boshqalar	90 223,30	117 991,10	139 348,40	166 067,50

2022-yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sishi quyidagicha qayd etilgan. Qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati 4 foiz, sanoat 8,7 foizni, qurilish 6,8 foizni, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 13 foizni, tashish va saqlash, axborot hamda aloqa xizmatlari 17,2 foizni, boshqa xizmat tarmoqlari 5,9 foizni va mahsulotlarga sof soliqlar 6,7 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimiz real YaIMning o'sish suratlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2012–2022-yillardagi eng past tendensiya 2020-yilda kuzatilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich, 1,6 foizni tashkil etgan. Real YaIMning eng yuqori ko'rsatkichlari 2012–2015-yillarda kuzatilgan bo'lib, bunda o'sish surati o'rtacha 8 foizni tashkil etgan. Shunga mos ravishda davlat byudjeti daromadlari ham xarajatlari ham YaIMga nisbatan o'rtacha 21,0 foizlik darajalarni tashkil etgan.




4-rasm: 2019–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga YaIM hajmi (joriy narxlarda, ming so'm) va o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika Qo'mitasi rasmiy sayti va nashrlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga YaIM hajmi 25 mln so'mni yoki 2 201 dollar ekivalentiga teng bo'ldi (dollarning o'rtacha kursi 2022 yilda 11400 so'm) tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2021- yil bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi. Aholi jon boshiga YaIM o'sish sur'ati 2019–2020-yillarda mos ravishda 3,7 % va 0,9 % ni tashkil etgan.

14 <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



5-rasm: 2015–2022-yillarda real YaIM o'sish sur'atlari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari (YaIM nisbatan foiz hisobida)¹⁵

5-rasmlardagi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizning 2015–2022-yillar oraliq'idagi davlat byudjet sarf-xarajatlari va daromadlarining o'zgarishi real YaIMning o'sish sur'atlari bilan mutanosib ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2015-yilda davlat byudjet daromadlari YaIMga nisbatan 20,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 22.4 foizga ko'paygan. Davlat byudjet xarajatlari esa mos ravishta 2015-yil 20 foiz, 2022-yilda 26.1 foizga oshgan.

XULOSA VA TAKLLIFLLAR

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko'lamini kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib fikr yuritamizki, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini O'zbekiston energetika sohasidagi salmog'ida oshirib borish bugunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan investitsion loyihalalar ortidan mamlakatimizga dunyoning ilg'or raqamli texnologiyalari, zamonaviy qurilmalar bilan birgalikda undan samarali foydalanish dasturlari, ish uslubi, bilim-tajriba kirib keladi. Muqobil energiya manbalarining davlat miqyosidagi yirik loyihalari, o'z navbatida, aholi xonardon, dala hovlilar, kichik va o'rta biznes korxonalarida "yashil" energiya manbalaridan mustaqil ravishda foydalanishiga o'ziga xos turki bo'lib xizmat qiladi.

Uylar, bino va inshootlar energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik nuqtai nazari bilan puxta muhandislik xulosalariga tayangan holda qurila boshlaydi. Hatto ayrim tadbirkorlar o'z ehtiyojidan ortgan elektr energiyasini energetika bozorida sotib, buning evaziga foya olishi, mamlakatimizning olis-olis hududlarida yangi ish o'rinnari yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mehanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shuningdek tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, energiya xavfsizligiga, bo'sh ish o'rinnarini yaratilishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va mamlakat rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. <https://www.lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-4477-son qarori. <https://www.lex.uz>

¹⁵ <https://openbudget.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-ton qarori. <https://www.lex.uz>
4. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barvier. Earthscan, London, Great Britain, 1989.192 rr.
5. Vaščalova T.B. Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие: учебное пособие. –М.: Юрайт, 2020. С. 56.
6. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015. – 176 p.
7. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X, "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari. Ilmiy elektron jurnal. XXI asr: fan va ta'lim masalalari. 2017 y.
8. Vaxabov A.V., Xojibakiev SH. X, Toshmatov SH. A, Butaboyev M.T "Yashil" iqtisodiyot darslik. Toshkent- 2020. B-39
9. <https://www.unep.org> Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit bo'yicha dasturi rasmiy veb sayti.
10. <https://worldgreenconomy.org> Dunyo Yashil iqtisodiyoti veb sayti.
11. <https://ecouz.uz> O'zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasini rasmiy sayti.
12. <https://minenergy.uz> O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi rasmiy sayti.
13. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari elektron bazasi.

PROGRESS

ПРОГРЕСС

TARAQQIYOT

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.